

SATIRIK HIKOYALARDA BADIY DETALLARNING AHAMIYATI

Bahor Bahriddinovna TO'RAYEVA

Filologiya fanlari doktori, professor v.b.
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

Muqaddas Ikromovna MURODOVA

Mustaqil izlanuvchi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

THE SIGNIFICANCE OF ARTISTIC DETAILS IN SATIRICAL STORIES

Bahor Bahriddinovna TURAeva

Doctor of Sciences in Philology, Professor
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

Mukadas Ikromovna MURODOVA

Independent researcher
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

ЗНАЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ДЕТАЛЕЙ В САТИРИЧЕСКИХ РАССКАЗАХ

Бахор Бахриддиновна ТУРАЕВА

И.о. профессора, доктор филологических наук
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан bahorturaeva@gmail.com

Мукадас Икромовна МУРОДОВА

Независимый исследователь
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

UDC (УО'К, УДК): 82.09

For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

To'rayeva B.B., Murodova M.I. Satirik hikoyalarda badiiy detallarning ahamiyati. //O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 1 (54). — B. 206-219.

<https://doi.org/10.36078/1710318522>

Annotatsiya. Dunyo adabiyotshunosligida “satirik modus” terminining ilmiy etimologiyasini va zamonaviy adabiyotshunoslikda qo'llaniladigan ma'nosini izohlash, satirik asarlarda qahramon va aksilqahramon tushunchalarini ochib berish, shaxs va jamiyat munosabatlarining murakkab tabiatini ko'rsatish, ingliz va o'zbek satirik nasri arxitektonikasini shakllantiruvchi tamoyillarni aniqlash, uning poetikasidagi muhim jihatlarni tadqiq qilish kabi vazifalar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois soha olimlari badiiy ijodning bir turi — satira va yumor bilan bog'liq muammo va vazifalarni yoritishga jiddiy e'tibor qaratishadi. Satirik asarlar muayyan davrni, ijtimoiy hayotni, jamiyatdagi va insonlar o'rtasidagi illatlarni kulgi orqali ayovsiz fosh etadi, ulardan voz kechish kerakligini namoyon etadi. Badiiy detallar yordamida xarakter qirralari to'la namoyon bo'ladi. Asar qahramonlarining ichki

Received: January 18, 2024

Accepted: February 17, 2024

Published: February 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



va tashqi olamini anglash uchun aniq bir vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular voqealarning tadrijiy rivojini, qahramon xarakterini va yozuvchi fikrlarini anglashga yordam beradi. Badiiy detal tufayli muallif chizgan hayot tasviri jonlanadi. Yozuvchi uchun badiiy detal alohida so'zlar, iboralar, matndagi takrorlar bo'lib, muallifga o'z fikrlarini kitobxonga yetkazish imkonini beradi. Tafsilotlar bayon yoki tavsiflovchi bo'lishi mumkin. Har bir adabiy asar qahramonlarning yashash sharoiti, xarakterlar to'qnashuvi, ruhiyatidagi turfaliklar va ularning to'xtovsiz o'zgarib turishiga, rivojiga aloqador sanoqsiz badiiy detallar umumlashmasidan iborat. Hikoya detali — voqea-hodisa haqida hikoya qiluvchi va syujetni rivojlantirishga xizmat qiluvchi detal. Tasviriy detal personajlarning axloqi va xarakterini ifodalovchi detaldir. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, biografik, psixologik, sistem-struktur tahlil usullaridan foydalanilgan. Maqolaning maqsadi Ivlin Vo va Abdulla Qahhor satirik hikoyalaridagi badiiy detallarni tahlil qilish, satirik mohiyatini aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: satirik hikoya; ajratuvchi detal; psixologik detal; faktlarni tavsiflovchi detal; naturalistik detal; ramziy detal.

Abstract. Tasks such as explaining the scientific etymology of the term “satirical mode” and establishing its meaning widely used in modern literary criticism, elucidating the concepts of hero and anti-hero in satirical works, demonstrating the complex nature of the relationship between the individual and society, determining the principles shaping the architecture of English and Uzbek satirical prose, and exploring important aspects of its poetics are gaining significant importance in the field of modern world literary studies. Scholars in this field pay serious attention to highlighting issues and tasks related to forms of artistic creation such as satire and humor. Satirical works mercilessly expose the shortcomings of a certain era, social life, interpersonal relationships, and indicate the need to abandon them through laughter. Through artistic details, the image of characters in a work is fully revealed. They serve as a precise tool for understanding the inner and external world of characters and help to understand the logic of events, the character of the hero, and the thoughts of the writer. Due to the artistic detail, the picture of life drawn by the author comes to life. Artistic details include individual words, phrases, repetitions in the text that allow the author to convey their thoughts to the reader. Details can be narrative or descriptive. Each literary work consists of countless artistic details related to the living conditions of the heroes, character conflicts, psychological differences, and continuous development. Comparative-typological, biographical, psychological, systemic-structural methods of analysis were used in the research process. The aim of the article is to analyze artistic details in satirical stories by Evelyn Waugh and Abdullah Kahhar and identify their satirical essence.

Keywords: satirical story; descriptive detail; psychological detail; factual descriptive detail; naturalistic detail; symbolic detail.

Аннотация. Особую актуальность в современном литературоведении имеет решение таких задач, как объяснение научной этимологии и установление значения термина «сатирический модус», широко используемый в мировой науке о литературе, раскрытие понятий герой и антигерой в сатирических произведениях, описание сложного характера взаимоотношений между личностью и обществом с целью определения принципов, формирующих архитектуру английской и узбекской сатирической прозы, исследование важных аспектов ее поэтики. Поэтому представители этого направления

исследований уделяют серьезное внимание освещению проблем и задач, связанных с такими видами художественного творчества, как сатира и юмор. Сатирические произведения при помощи смеха критикуют недостатки определенной эпохи, характерные для общественной жизни, пороки в межличностных отношениях, показывают необходимость борьбы с таким положением дел. Художественные детали способствуют раскрытию различных граней образа персонажа. Они служат точным инструментом, с помощью которого можно проникнуть в его внутренний мир и создать индивидуализированный внешний облик. Они также помогают понять логику развития событий, характера героя и мысли писателя. Благодаря художественной детализации оживает нарисованная автором картина жизни. Художественные детали, позволяющие автору донести до читателя свою мысль, — это отдельные слова, фразы, повторы в тексте. Детали могут быть повествовательными или описательными. Каждое литературное произведение представляет собой совокупность бесчисленных художественных подробностей, связанных с условиями жизни героев, столкновениями характеров, различиями их психики, их непрерывным изменением и развитием. В процессе исследования использовались сравнительно-типологический, биографический, социальный, контекстуальный, стилистический, системно-структурный методы анализа. Цель статьи — проанализировать художественные детали и исследовать сатирическую природу данных деталей в сатирических рассказах Ивлиева Во и Абдуллы Каххара.

Ключевые слова: сатирический рассказ; описательная деталь; психологическая деталь; фактическая деталь; натуралистическая деталь; символическая деталь.

Kirish

Jahon adabiyotshunosligida satira voqelikni badiiy ifoda etishning o'ziga xos tamoyili sifatida adabiyotning barcha turlari — lirik, epik va dramatik asarlarda qo'llaniladigan komiklikning bir turi va badiiylik modusi sifatida e'tirof etiladi. Satira dastlab janr sifatida Rim adabiyotida paydo bo'lib, yillar o'tgan sayin ravnaq topdi. Hozirgi kunga kelib, satira janrlik xususiyatini yo'qotdi. Shakl va mazmuni, poetik qirralari va sintezi bilan o'ziga xos hodisa bo'lgan satira qahramonlarga o'zligini namoyon qilish va idrok etishga, olam va odam munosabatlarini teran ilg'ashga, insoniyatni ezgulikka da'vat etishga, dunyoni yaxshi tomonga o'zgartirishga yordam beradi; unda millat tajribasi, donishmandligi, xalq falsafasi va psixologiyasi aks etadi. Satirik asarlarda adolat, haqiqat, go'zallik, to'g'rilik, qahramonlik haqidagi g'oyalarga zidlik inkor etiladi. Insoniyat tafakkuri tadrijida hayot, davr talabi bilan fosh qiluvchi, beshafqat kulgi estetik kategoriya sifatida tobora yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Uning mohiyati asar badiiy konsepsiyasi va yozuvchining ijodiy niyati, g'oyaviy pozitsiyasi, obraz yaratish tamoyillari va badiiy uslubi bilan belgilanadi. Jahon adabiyoti tarixidan ma'lumki, satira insoniyat taraqqiyotida davrlar burilishlari va yangi davr boshlanishida yuzaga keladigan murakkab ijtimoiy vaziyatlar mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Dastlab, Qadimgi Rimda mustaqil poetik janr sifatida shakllangan bo'lsa, keyinchalik menipp satirasining paydo bo'lishi natijasida nasrga tarqaldi, bugungi kunda janr sifatidagi ahamiyatini

yo'qotib, asosan tasvirlangan voqelikka tanqidiy munosabatni ifodalaydi. Satira adabiyotshunoslik, tilshunoslik, estetika va falsafa kabi fanlarning tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmoqda.

Asosiy qism

Detal (fr. detail — tafsilot, mayda-chuyda) — badiiy detal; badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy yuk tashuvchi tafsilot. Badiiy detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya'ni u hamisha predmetlilikni ko'zda tutadi), detallarning birikuvi natijasida o'sha obraz ko'z oldimizda butun holda namoyon bo'ladi. Badiiy detal ortida ma'lum bir realiya mavjud: maishiy turmush yoki joy tafsilotlari, portret chizgilari va sh.k. Shuningdek, personajning imo-ishoralari (jest), tana holati (poza), xatti-harakati, gap-so'zlari ham detal sanaladi, ular bari birlikda konkret inson obrazini gavdalantiradi. U badiiy voqelik ashyosi bo'lish bilan birga badiiy umumlashtirishga intiladi, yozuvchi fikrini aniqlashtirish, to'ldirish, kuchaytirish maqsadlariga ham xizmat qiladi (1, 90). Badiiy detallar yordamida xarakter qirralari to'la namoyon bo'ladi. Asar qahramonlarining ichki va tashqi olamini anglash uchun aniq bir vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular voqealarning tadrijiy rivojini, qahramon xarakterini va yozuvchi fikrlarini anglashga yordam beradi. Badiiy detal tufayli muallif chizgan hayot tasviri jonlanadi.

Yozuvchilar tomonidan satirik asarlarda badiiy detallardan keng foydalaniladi. Yozuvchilarga inson xarakteridagi nuqsonlar va jamiyatdagi illatlar ustidan masxara qilish, hayotga munosabatini kitobxonga yetkazish imkonini beradi. Satirada masxara qilingan personaj inson emas, niqob. U muayyan sifatlarni bo'rttirib ko'rsatish orqali yaratilgan. Yozuvchi va kitobxonlar uchun nafratlanadigan ba'zi insoniy xislatlar kulgili, ayovsiz oshkor qilingan holda yetkaziladi. Badiiy asarda, odatda, yozuvchi turli detallarni qo'llaydi: ajratuvchi detal, psixologik detal, faktlarni tavsiflovchi detal, naturalistik detal, ramziy detal.

1-jadval

Badiiy detalning vazifasiga ko'ra tasnifi (2, 59)

T/r	Detalning vazifasiga ko'ra turlari	Izoh	Hikoyalardan olingan parchalar	
			Ivlin Vo ijodidan	Abdulla Qahhor ijodidan
1.	Ajratuvchi detal	Yozuvchi badiiy obraz va voqeahodisalarni bir qancha o'xshashlaridan farqlaydi.	"She walked with the aid of a stick, <i>having been lamed</i> many years back when her horse rolled her among loose stones late in a long day ith the Ballingar Hounds..." (Ov paytida oti Ballingar Houndsda toshlar ustiga dumalatganidan keyin, ko'p yillardan buyon oqsoqlanib tayoq bilan yurar edi) (3, 113).	"Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin <i>bag'baqasini</i> osiltirib kuldi"(4, 21).

2.	Psixologik detal	Obraz ruhiyatini tavsiflash vositasi bo'lib, qahramonning ichki olamini ochishga yordam beradi	"There is a tear (which finds a ready response in Adaand Gladys who sob uncontrollably) in Adam's eye; Imogen's lipsluxuriously disposed by the pressure. "Imogen, you never really cared, did you? If you had you wouldn't go away like this"(Adamning ko'zlarida yosh (Ada va Gladisning beixtiyor ko'zyosh to'kishiga to'g'ridan-to'g'ri javob edi) bor edi. Imogenning lablari bosim tufayli moyillikni oshirdi. Imogen, sen hech qachon qayg'urmagansan, to'g'rimi? Agar qayg'urganding-da, meni bunday tashlab ketmas eding) (3, 17).	"Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko'zlarini javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi (4, 20).
3.	Faktlarni tavsiflovchi detal	Badiiy asardagi real faktlarni tavsiflaydi	In the last generations, too, there had been marked traces of <i>eccentricity</i> . Bella Fleace's mother - an O'Hara of Nehill - had from the day of her marriage until her death suffered from the delusion that she was a Negress. (So'nggi avlod vakillarida g'ayritabiiy holatlar aniqlangan edi. Bellaning onasi O'Hara Nehill turmushga chiqqanidan umrining oxirigacha "qora tanli" degan tamg'a bilan yashashdan azob chekkan) (3, 112).	"Chexov Pushkin bilan bir davrda yashagan emas-ku, - dedi Mukarram, - bizning kutubxonada uning Maksim Gorkiy bilan oldirgan <i>surati</i> bor. Chexov 1904-yilda o'lgan bo'lsa kerak" (4, 44)

4.	Naturalistik detal	Obyekt yoki hodisani tashqi tomondan aniq, real tasvirlaydi.	"To the south, between the trees, he could pick out the silver line of the river. Warily, for the ground was full of pits and crevices, he crossed what had once been Leicester and Trafalgar Squares. Great flats of mud, submerged at high water, stretched to his feet over the Strand, and the margin of mud and sedge was a cluster of huts, built on poles; inaccessible because their careful householders had drawn up the ladders at sunset" (Janubda, daraxtlar orasidan daryoning kumush chizig'i ko'rinib turar edi. Yer chuqur va yoriqlarga to'la edi, u Leysester va Trafalgar maydonlaridan o'tib ketdi. Katta suv ostida cho'kib ketgan loydan yasalgan katta tekisliklar Strand ustidan bir qator tizilgan, loy va o'tdan qilingan ustunlar ustiga qurilgan kulbalar bor edi; uy egalari quyosh botganda ehtiyotkorlik bilan zinapoyalarni chizib qo'yganlari uchun kirish imkoni vo'q edi) (3, 151).	"To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo'riydi, ba'zan qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi" (4, 18).
5.	Ramziy detal	Hayot hodisalarining o'xshashligiga asoslangan hissiy va allegorik ma'noga ega bo'lgan mustaqil ko'p qirrali badiiy tasvir.	"Such an odd thing they couldn't get on better. Of course, different races had different ideas - some didn't wash, some had queer ideas about honesty, some got out of hand at times when they'd had too much to drink" (Bu shunday g'alati narsaki, ular bir-biri bilan yaxshi chiqisha olmaydi. Albatta, har xil irqning fikrlari har xil edi - kimdir yuvinmaydi, kimdir halollik haqida g'alati fikrlarga ega edi, ba'zilari esa juda ko'p ichgan paytlarda bor-budidan ayrildi) (3, 73).	"Hayal o'tmay uyquga ketib xurrak otdi. Uning xurragi ham nechukdir adabiyroq edi: "Pluq-qum-prr...pluq-qum-prr" (4, 41).

A. Qahhorning “Bemor” hikoyasidagi *pul*, Ivlin Voning “Bella Fliz ziyofat berdi” hikoyasidagi *jo‘natilmay qolgan taklifnomalar* predmet detallarga misol bo‘lib, asar qahramonlari hayotida muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi Abdulla Qahhor badiiy detal xususida quyidagi chiroyli o‘xshatishni keltiradi: “*Ba‘zilar asarga chiroyli detal kiritishga o‘ch bo‘ladi. O‘sha detal chiroyli bo‘lsa bordir. Ammo asarning bosh maqsadiga xizmat qilmaganidan keyin tegirmonchining maxsisiga o‘xshab qolaveradi, oyoqni bir qoqsangiz yopishgan un gardi tushib ketadi-yu, burishgan mahsi ko‘rinib qoladi. Detal pardoz emas, husn bo‘lib asarni ochishi kerak*” (5, 256).

Badiiy detal obrazning tarkibiy qismi bo‘lib, asarda asosiy badiiy yukni ko‘taradigan adabiy hodisadir. Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasidagi badiiy detal ijtimoiy mohiyat kasb etadi: bosh qahramon Sotiboldi og‘rib qolgan xotinini o‘qitdi, tabibga ko‘rsatdi. Muallif nutqi davomida tabibning qon olgani-yu, bemorning ko‘zi tinib, boshi aylanadigan bo‘lib qolishi-yu, allaqanday xotin kelib kasalni tolning xipchini bilan savalagani, tovuq so‘ygani haqida kinoya qiladi. Nega aynan bu gaplar kinoyali? O‘sha davr odamlari juda soddaligidanmi, ma‘nan qashshoqligidanmi, bemorni shifokorlarga emas, tabib, baxshi, allaqanday xotinga ishonib topshirgani, ulardan xotinini tuzatib berishlariga umid qilishidir. “*Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo‘ladi*”, — deya kitobxon diqqatini satirik asarning bosh maqsadini ochib beruvchi badiiy detalga qaratadi. Pul — boylik ramzi bo‘lsa-da, asarda Sotiboldining nochor ahvolini ifodalovchi vositadir. Doktorxona deganda Sotiboldining ko‘z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so‘mlik pulning kelishi xo‘jayini qo‘lida mardikor bo‘lib ishlovchi Sotiboldining moddiy ahvolini belgilab bermoqda. Asarda nafaqat Sotiboldining nochorligi, balki bemorni oyoqqa turg‘izish imkoni bo‘lmagan noraso jamiyat va uning a‘zolari ham satira qilingan.

Qo‘lidan kelsa, uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor Abdug‘aniboy ham quruq gapdan nariga o‘tmaydi: “— *Devonayi Bahovaddinga hech narsa ko‘tardingmi? G‘avsula‘zamga-chi?*”. Bu gap, og‘ir vaziyatdagi Sotiboldi uchun imkonsiz edi. Sotiboldi bu gapni eshitib, indamay ketdi. Ayolini davolatishga pul topmagan inson, ehson uchun qayerdan pul topardi? Abdug‘aniboy tilidan aytilgan birgina shu gap o‘sha davr boylarining oddiy xalq bilan ishi yo‘qligini, qo‘lidan kelsa-da, yordamga qo‘l cho‘zmasligini ifodalaydi.

Karaxt, nimjon, xira pashshalar naturalistik detali ham satirik asarning badiiyligini oshirishga xizmat qilgan. Nafaqat o‘sha davr insonlari nimjon, nozik, balki xira pashshalari ham karaxt va nimjondir. Bu jumla orqali Abdulla Qahhor fuqarolarini qiynab qo‘ygan o‘sha davr jamiyatining ustidan zaharxanda kulgan. Dugonalari bilan chopqillab, o‘ynab yurish yoshidagi to‘rt yashar qizchanning qo‘lida ro‘molecha, mukka tushib uxlab qolishi ham kishini sergak torttiradi. Nahotki, bemorga qaraydigan boshqa yaqinlari yo‘q. Qizaloqning kunduzi mukka tushib uxlab qolishi g‘ayritabiiy holat, balki u ham onasi kabi nimjondir. Muallif nafaqat katta odamlar kuchsiz, madorsiz, balki yosh avlodning ham kuchsiz va chorasiz ekanligiga ishora qilgan.

Yozuvchi Ivlin Vo “Bella Fliz ziyofat berdi” hikoyasida badiiy detal sifatida *jo‘natilmay qolgan taklifnomalarni* tanlagan. Muallif bayonida

ziyofat uyushtirilishi, mehmonlar kelishini intizorlik bilan kutgan Bella Fliz holati shu darajada ishonarli tasvirlanganki, kitobxon taklif etilgan mehmonlar nega tashrif buyurmaganini tushunmay, hikoyani hayratlanib o'qiydi. To'qson yoshga borib qolgan Bella Fliz o'z uyida katta bazm uyushtirib, do'stlarini taklif etadi. Bazm uchun barcha narsa tayyor bo'lsa-da, negadir taklif etilganlar kelmaydi. Qahramon ularni uzoq muddat kutadi va nihoyat Lord va xonim Mokstok, senyor Samuel va Gordon xonimlar tashrif buyuradi. Men ularni chaqirmagan edim-ku, deya qahramon qattiq o'yg'a toladi, sog'lig'i yomonlashadi. Bazmdan bir kun o'tgach Bella Fliz vafot etadi. Hikoya kutilmagan yechim bilan tugaydi. O'lim sababini aniqlashga kelgan janob Banks bir hafta tekshiruvlardan keyin, Bella Flizning ish stolidan muhrlangan, manzillar yozilgan, ammo e'lon qilinmagan taklifnomalarni topadi. Ushbu badiiy detal kutilmagan yechim hosil qilishga asos bo'lgan. Asar qahramoni taklifnomalarni jo'natishni unutgan edi. Bella Fliz prototip obraz bo'lib, muallif o'z kundaligida qarib qolgan buvisining parishonxotirligi haqida yozgan.

Bellaning tashqi ko'rinishi uning xarakteriga qarama-qarshi edi, jumlasida muallif satira vositalaridan biri groteskni ishlatadi: *"She was over eighty, very untidy and very red; steaky grey hair was twisted behind her head into a horsy bun, wisps hung round her cheeks; her nose was prominent and blue vined; her eyes pale blue, blank and mad; she had a lively smile and spoke with a marked Irish intonation* (U saksondan oshgan, juda tartibsiz va rangi qizil edi; oqarib ketgan kulrang sochlari boshining orqasiga to'ng'iz bo'lib o'ralgan, yonoqlarida burmalar osilgan; uning burni ko'zga ko'rinadigan va ko'k rangli edi; uning ko'zlari och ko'k, bo'sh va aqldan ozgan; u jonli tabassum qilar va sezilarli irland intonatsiyasi bilan gapirardi)"(3, 113).

Bosh qahramon haqida qo'shnilari tilidan aytilgan kinoyali hazil ham asardan o'rin olgan: *"A rotten day", they would report. "We found our fox, but lost again almost at once. But we saw Bella. Wonder how long the girl will last. She must be nearly ninety. My father remembers when she used to hunt - went like smoke, too. ("Mash'um kunda", — deb xabar berishardi. "Biz tulkimizni topdik, lekin birdaniga yana yo'qotdik. Lekin biz Bellani ko'rdik. Qiziq, qiz yashashda qancha davom etadi? U to'qsonga yaqinlashgan bo'lsa kerak. Otam Bellani ovlashga odatlanganini eslaydi — o'sha xotiralar tumanday tarqab ketdi)* (3, 113). Bellani portreti berilgan-da, uni oqsoqlanib yurishi ham aytib o'tilgan. Bu ramziy ma'noga ega. Bellaning tashqi portretidagi nuqsoni orqali uning ichki dunyosida ham kemptiklik borligiga ishora qilinadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, oqsoqlanish detali Abdulla Qahhor ijodida ham uchraydi ("Anor" hikoyasidagi oqsoq mushuk). Oqsoqlanish detali satiraning badiiyligini yanada oshirgan. Yozuvchi jo'natilmay qolgan maktublar badiiy detalidan hikoyada o'rinli foydalangan, zero, qahramon hayotiga yakun yasagan maktublar orqali adib aristokratlar dunyosidagi ortiqcha dabdaba ustidan zaharxanda kulgan. Asar mazmunidan ma'lumki, Bellaning onasi qora tanli bo'ladi. Onasi qora tanli ekanligidan turmush qurganidan to o'limiga qadar aziyat chekkan. Bella bazmga ancha oldin tayyorgarlikni boshlaydi, u bazmdan juda jiddiy maqsadni niyat qilgan edi, shu bois taklifnomalarni ham ko'p vaqt oldin tayyorlab qo'yadi. Bosh qahramon oq tanlilar jamoasiga qo'shilish uchun kazo-kazolarni bazmga

taklif etadi (zero, uning otasi oq tanli edi) va bu — jamiyatning yuqori bo'g'ini hisoblangan oqsuyaklar qatoridan o'z o'rnini egallash, maqomini tiklash uchun so'nggi urinish edi. Bolaligidan keksayganiga qadar qora tanli ayolning farzandi sifatida eshitgan dashnom va kamsitilishlardan qolgan ruhiy jarohatlar maktublarni o'z egalariga yetkazilmasligiga sabab bo'lgan, ya'ni jo'natishga Bellaning jur'ati yetmagan.

Yana bir o'tmish hayotidan darak beruvchi "O'g'ri" hikoyasining badiiy detali — ho'kiz. Asarda tugun ho'kizning yo'qolishi bilan boshlanadi. Asarning nomi ham satirik tanlangan bo'lib, asarda bir necha o'g'rilar borligiga ishora qiladi. Hikoyada ho'kizni o'g'irlaganlar o'g'ri emas, balki ho'kizni topib beramiz deb, cholga umid berib, uning bor-budidan ayirganlar — haqiqiy o'g'ri. Aminning nutqida kesatq bor:

— *Ha, sigir, yo'qoldimi?*

— *Yo'q...sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi.*

— *Ho'kizmi?. Ho'kiz ekan-da! Himm... Ola ho'kiz? Tavba!..*

Aminning kesatig'i suhbat davomida rivojlanib, kuchli kinoyaga aylanadi:

— *Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?*

"Yo'qolmasdan ilgari bormidi?" amin tilidan aytilgani uchun kuchli kinoya paydo qilib, asarning haqiqiy satirik asar bo'lishiga xizmat qilgan. Asar davomida amin tilidan: "*Ha, ho'kizni uylariga eltib berilsinmi?! Axir, borilsin, arz qilinsin-da!*", degan kesatq ham aytiladi. Albatta, buning ortida muayyan maqsad borligini sergak kitobxon anglaydi.

Qobil bobo ro'para bo'lganda amin og'zini ochmasdan qattiq kekirishi, keyin bag'baqasini osiltirib kulishida ham oddiy xalqqa nopisandlik, beparvolik holati mavjud. Aminning bag'baqasi xalqning halol mehnat evaziga kelgan molidan ta'magirlik qilib yurgani uchun paydo bo'lgan. U Qobil boboga o'xshash necha-necha odamlar mulkini "og'irini yengillatish" uchun talon-taroj qildi, birovning haqqiga ko'z olaytirdi. Ushbu o'rinda aminning bag'baqasini osiltirib kulishi Abdulla Qahhor tomonidan o'ylab topilgan mohirona kesatq bo'lib, muallifning zaharxanda nafratini ifodalaydi. Yozuvchi kuppakunduzi xalqning bor-buduni tortib oluvchi ellikboshi, amin, pristav kabi satirik obrazlar ta'magirlikni ayovsiz fosh etib, satira qiladi. Ko'zga ko'rinadigan birdan-bir boyligidan ayrilgan kambag'al kishining ruhiy holatini boshqacha usulda tasvirlash amrimahol edi: "*Qobil bobo yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi*". Yozuvchi asar boshida "*Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin*" jumlasini qo'llaydi. Demak, ho'kizning yo'qolishi — uyning kuyishidan yuz chandon aziyatli holat. Kuchli qo'rquvdanmi yo qattiq asabdanmi Qobil bobo *dag'-dag' titrardi*, boyligidan ayrilib, chorasiz qolganidan *tizzalari bukilib-bukilib ketadi*, madad istab *ko'zlari javdiraydi, hammaga qaraydi*, ammo unga yordam bera oladigan *hech kimni ko'rmaydi*". Abdulla Qahhorning har bir jumlasida tagma'no mujassam. Jamiyatda kambag'alga yordam beradigan hech kim yo'qligi ham qattiq satira tig'iga olingan.

Ivlin Vo "*Tanazzulga yuz tutgan sevgi*" nomli hikoyasiga badiiy detal sifatida *poyezdni* kiritgan. Tabiiyki, poyezdda yo'lovchilar yangi insonlarni uchratishadi, suhbatlashishadi. Bosh qahramon Tom ham

rafiqasi Anjela bilan to'ydan keyin asal oyiga yo'l olishadi. Ammo Tom, ismini ham eslolmagan eski tanishini vokzalda uchratib, u bilan suhbatlashib poyezddan qolib ketadi. Shu poyezd bo'lmaganda, asardagi voqealar bu darajada rivojlanmas, ularning sevgisi tanazzulga yuz tutmas edi. Ivlin Vo Anjelaning ta'rifini berganda, grotesk vositasidan foydalanadi. U bilan sodir bo'lgan voqealar uning jamiyatdagi mavqeyiga qarama-qarshi edi.

Yozuvchining shaxsiy hayoti bilan bog'liq holatlar hikoyada teran aks ettirilgan. Boshqa hikoyalarida bo'lgani kabi, ushbu hikoyada ham ayol xiyonatiga ishora qilingan va jumboqli tarzda kinoya qilingan. Hikoyaning boshida kelin va kuyov g'ayriushuriy asal oyini Angliyaning g'arbida o'tkazishadi, deb kinoya qilingan. Vaholanki, poyezdda Anjela yolg'iz bir o'zi jo'nab ketgani sababli yosh kelin-kuyov hayotining ilk pallasidanoq ayri yashashadi. Ushbu hikoyada ham aristokratlar hayoti satira o'qiga tutilgan: yosh kelin-kuyovlarning hayoti hali boshlanmay turib, baxtsizlikka mahkum etiladi.

Yozuvchi Abdulla Qahhor "Adabiyot muallimi" satirik hikoyasi uchun A. P. Chexovning "Uyqu istagi" asarini badiiy detal sifatida tanlaydi. Hikoyada "Uyqu istagi" qaysi Chexovniki? — deya pochcha va jiyan o'rtasida muzokara boradi. Ushbu predmet detal asarga satirik mohiyat baxsh etgan. "Nafis adabiyot muallimi" Boqijon Baqoyevning o'z fanining qay darajada bilishi satiraning ayovsiz o'qiga tutilgan. Erining bir davr, bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari bo'lishiga qaramay, "*Chexovning dunyoqarashi Pushkin va Lermontovlarning dunyoqarishdan farq qiladi*", degan fikrini eshitib, Mukarram "Chexov Pushkin bilan bir davrda yashagan emas-ku, bizning kutubxonada uning Maksim Gorkiy bilan oldirgan surati bor. Chexov 1904-yilda o'lgan bo'lsa kerak" — deydi. Mukarram tilidan aytilgan, faktlarni asoslovchi bu gap o'zini "nafis adabiyot muallimi" deb hisoblovchi bilimsiz "dono"ni o'ng'aysizlantirdi. Yozuvchi o'z fanini chuqur bilmaydigan muallimning kamchiligini fosh etib, masxara qilgan.

Adib "ilmsiz muallim"ning savollarga javob bermay, o'zini har tomonga urib, mavzuni o'zgartirishga urinishlarini badiiy mahorat bilan tasvirlagan. Asar oxirida ijodkor qahramonning hech narsani bilmasligini ta'kidlab, masxara qiladi va so'ngi hukmni o'zi o'qiydi: "*Hamida mezbonlar bilan xayrlashib ko'chaga chiqqanda qorong'i tushgan edi, "Uyqu istagi" to'g'risida pochchasidan hech qanday fikr ololmadi*".

"Dikkensni yoqtirgan odam" hikoyasining badiiy detali — kitob. Badiiy detal asarning satiriklik xususiyatini yanada ochib bergan. Janob MkMaster har kuni satirik obraz Hentini Dikkens asarlarini o'qib berishga mahkum etadi. Har kuni qayta-qayta Dikkens asarlarini o'qib beruvchi obraz tutqunlikda yashashda davom etib, ozodlikka chiqish umididan mahrum bo'ladi. Qahramon uyiga qaytmoqchi bo'lganida, janob MkMaster o'rmon o'simliklaridan tayyorlangan giyohni unga ichiradi va giyoh uni hushsiz holatga olib keladi. Muallif bosh qahramonni tasvirlar ekan, grotesk vositasidan foydalanadi, Hentining jamiyatdagi mavqeyi va hayotidagi voqealar bir-biriga qarama-qarshi qo'yilib, hamma havas qilgulik boyliklarga ega insonning, aslida hayotda hech narsasi yo'qligi, hayotining mazmunsizligi ustidan zaharxanda kuladi: "*He was not by nature an explorer; an even-tempered, good looking young man of*

fastidious tastes and enviable possessions, unintellectual, but appreciative of fine architecture and the ballet, well travelled in the more accessible part of the world, a collector though not a connoisseur, popular among hostesses, revered by his aunts. He was married to a lady of exceptional charm and beauty, and it was she who upset the good order of his life by confessing her affection for another man for the second time in the eight years of their marriage (U tabiatan tadqiqotchi emas edi; jahldor, xushbichim yigit, didi va havas qilsa arziydigan mol-mulki bor, aql-idroksiz, lekin nafis me'morchilik va balet san'atini qadrlaydigan, dunyoning eng qulay joylarida yaxshi sayohat qilgan, yaxshi yig'uvchi garchi biluvchi bo'lmasa ham, styuardsalar orasida mashhur, xolasining hurmatiga sazovor. U g'ayrioddiy jozibali va go'zal xonimga uylangan edi va aynan u sakkiz yil turmushi davomida ikkinchi marta boshqa erkakka bo'lgan mehrini tan olib, erining hayotidagi xotirjamlikni buzdi (3, 130).

“O'jar” hikoyasining badiiy detali — shaxmat. Ushbu detal ramziy ma'noga ega. Ikki ulfat shaxmatning zarari, hozirgi tarbiyaning oqsagan joylarini qattiq tanqid qilishadi. Asar so'ngida esa, o'zini shoh deb o'ylagan otalar maktab o'quvchisi bo'lgan o'g'li oldida mot bo'lishadi. Yozuvchi satirik asar mukammal bo'lishi uchun mubolag'adan, qahramonlar nutqidagi kinoyadan, zaharxanda kulgidan unumli foydalangan. Asar davomida qahramonlar orasidagi samimiy kulgi bosqichma-bosqich rivojlanib, sarkazmga aylanadi: “*Chunonchi, men u kuni o'g'lingizni imtihon qilib ko'rdim. Mazasi yo'q! Hatto Saltikov bilan Shchedrin degan mashhur yozuvchilarni bir-biridan farq qilolmaydi, ikkovi bitta odam deydi. Kula-kula o'libman. Sizga aytaman deb esimdand chiqibdi*” (4, 49). O'z farzandini a'lochi deb bilgan otaga bu gaplar og'ir botdi. Yozuvchi ushbu o'rinda buyuk rus satirigi Saltikov-Shchedrinni ikkita mashhur yozuvchilar deb o'ylayotgan Zargarovning bilimsizligini ko'rsatib, masxara qiladi. Adib bu hikoyasi orqali o'zini o'ta aqlli deb bilgan kimsalar, boshqalarning fikrini doimo noto'g'ri deb hisoblashlarini va buning natijasida noqulay vaziyatda qolishlarini ayovsiz fosh etadi.

Ivlin Voning “*Muvozanat*” nomli hikoyasida sevgilisi tashlab ketayotgan bosh qahramon *ko'zlarida yosh* qalqiydi. Erkak kishining ko'z yosh to'kib, kuyinish holatini muallif yanada bo'rttirib ko'rsatadi. Psixologik detal yordamida Adamning ichki ruhiy olami yanada ochilgan. Sevgilisi tashlab ketayotgan, chorasiz qolgan erkak ustidan muallif zaharxanda kulgan. Asar mazmunida kuchli satira yotadi: erkak o'z sevgisi uchun kurasha olmaydi, menga haqiqatan ham g'amxo'rlik qilganingda, bu kabi tashlab ketmas eding, deya hasrat cheksa-da, bekatgacha sevgilisini o'zi kuzatib boradi. Qahramonda mardlik, kurashuvchanlik yetishmaydi. Yozuvchi Adam obrazini ayollardek ko'zyosh to'kishini tasvirlab, uning holatidan zaharxandalik bilan kulgan.

“Anor” hikoyasida anor badiiy detal sifatida tanlangan. Yozuvchi anorni badiiy detal qilib bejiz tanlamagan, anor istaklari muhayyo qilinmagan, yuragi xun ayollar ramzi. Hikoyada homilador ayolning birgina istagini amalga oshirolmagan Turobjonning bir kunlik hayoti yoritilgan. Adib nafaqat Turobjonni, Turobjon orqali o'sha davr erkaklarini, jamiyatni satirik tanqid qilgan. Boshqorong'i xotining xarxashasiga chidolmay, Turobjon: — *Axir, boshqorong'i bo'l, evida bo'l-*

da! — deya kesatq gap aytadi. Bu kesatq homilador xotiniga juda qattiq ta'sir qiladi, sal o'tib erining gaplaridan o'pkalanib: — *O'sha asalning puliga anor ham berar edi*, — deydi. Borgan sari Turobjonning nutqida zaharxandalik, kinoya oshib boraveradi:

— *Berar edi!* — *dedi Turobjon zaharxanda qilib*, — *anor olmay asal oldim!*

Mahoratli yozuvchi ushbu asarida sarkazmni ham ishlatgan: — *Ajab qildim*, — *dedi Turobjon titrab*, — *jigarlaring ezilib ketsin!*. Qahramonning aytgan bu gapi ayolining jon-jonidan o'tib ketdi. Muallifning o'zi ham ta'kidlaganidek, Turobjon bu uch so'zni ravshanroq aytdi: "*Jigarlaring ezilib ketsin!*". Xotining birdan-bir suyangani eri edi va birdan-bir orzusi esa anor. Bir daqiqada har ikkalasidan ayrildi. Ayolining orzusini ushaltirolmagan erkak va uning ayoli o'rtasidagi dahanaki jangi kesatq va kinoyalarga bosqichma-bosqich boyib bordi. Xotining "*Kambag'alchilik o'lsin!*" — deyishini Turobjon ta'na deb qabul qildi:

— *Bunday armoning bo'lsa, hali ham serpulroq odamga teg.*

— *Ikkita anor uchun xotiningizni serpul odamga oshirgani uyaling!*

Mana shu gapda o'zbek ayollariga xos aql-zakovat, hayo-ibo, eriga nisbatan hurmat o'z aksini topgan.

Asarning yana bir o'rnida sarkazm ifodalangan: — *O'tgan bozor kuni yegan anoringni o'ynashing olib kelganmidi?!*

— *O'ynashim olib kelgan edi!*

Ivlin Voning "*Tubanlikdan tashqarida*" nomli hikoyasida naturalistik detal qo'llanilgan. Undan Leysester, Trafalgar, Strand kabi joy nomlari o'rin olgan. Yana bir hikoyasi "*Matonatli bardosh*"da esa ramziy ma'noga ega detallarga duch kelamiz. Ushbu asarda muallif "turli irqlarda turli g'oyalar bor", deya irqlar haqida shaxsiy fikrini bildirgan. Yozuvchi hayot hodisalarining o'xshashligiga asoslangan hissiy va allegorik ma'noga ega bo'lgan mustaqil ko'p qirrali badiiy tasvir vositalaridan o'rinli foydalangan.

Adibning "*San'atkor*" nomli hikoyasi ham yengil, o'qishga juda qulay, kulgiga boy asar. "*San'atkor*" asarining badiiy detali — so'zi buzib aytilgan ashuladir ("*labingdan bo'lsa olsam, e, shakarlab*"). San'atkorning nutqidan bir necha kinoyali gaplar o'rin olgan: "*Tanqid deganiga endu bu kishining ham tanqid qilg'ulari kelipti...Amali traktorchi ...Obbo!...*". San'atkor va uning xizmatchisi orasidagi suhbat kitobxonning qahqahasiga sabab bo'ladi:

— *"J"ning kattasini ko'rsatib bermadingiz, ertaga domla so'raydigan edilar. Qanaqa yoziladi?*

— *Kichigini yozib qattiqroq o'qing!*

Asar muallifning zaharxandasi bilan yakunlanadi: "*Hayal o'tmay uyquga ketib xurrak otdi. Uning xurragi ham nechukdir adabiyroq edi: "Pluq-qum-prr... pluq-qum-prr"*. O'zini madaniyatli odam sanab, har gapini adabiy qilib aytishga harakat qiluvchi san'atkorning xurragi ham adabiy edi deb, san'atkorning holati, o'zini tutishi masxara qilinib, satira qilingan. Yozuvchining zaharxanda kulgisi o'quvchiga ham beixtiyor ko'chadi.

Xulosa

Satirada hayotdagi mutanosiblik saqlanmaydi, balki mubolag'alarga, kinoyaga, bo'rttirishlarga keng o'rin beriladi. Satira jamiyatdagi illatlarni ayovsiz fosh etadi va ularni butkul yo'qotishni maqsad qiladi. Satirik asarni o'qigan kitobxon yuksak ideallar nuqtai nazaridan kulgili tarzda fosh etilgan pastkashliklardan nafratlanadi, satira vositasida tarbiyalanadi. Satira eng yaxshi insoniy fazilatlarni, turmushdagi go'zal va ijobiy tomonlarni yaratishda ham o'ziga xos ijtimoiy ahamiyatga ega.

Ivlin Vo va Abdulla Qahhor hikoyalarida voqelikni satirik tanqid qilishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda universal jihatlar ham mavjud. Adiblarning o'tkir qalami jamiyatning rivojlanishiga qarshi turgan har qanday to'siqlarga qarshi qaratildi. Bilimsiz nodonlar, xiyonatkor ayollar, xurofot illatlari ayovsiz qoralandi. Axloqsizliklar, kishilar o'rtasidagi noto'g'ri munosabatlar, yangilikdan cho'chidiganlar satira tig'iga olindi. Ikki adib ham jamiyat, insoniyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi illatlarni o'z satirik hikoyalarida fosh qildilar. Ular tomonidan yaratilgan satirik asarlarning ma'naviy ta'sir kuchi o'tkir bo'lib, hozirgi kunga qadar ahamiyatini yo'qotgan emas.

Ivlin Vo va Abdulla Qahhor hikoyalarida badiiy detaldan asosan satirik g'oyalarini kitobxonga yetkazish uchun foydalanishgan. Yuqorida tahlil qilingan badiiy detallar muallifga o'z g'oyasini, his-tuyg'ularini, qarashlarini badiiy asar orqali ifodalashga yordam bergan. Badiiy detal kitobxonning asar haqidagi tushunchasi va idrokini chuqurlashtiradi, ya'ni qahramonlarni yaxshiroq tushunish va ularga hamdard bo'lish, asarni tahlil va talqin qilish, shuningdek, undagi chuqur ma'no va g'oyalarni topishga imkon beradi. Xullas, badiiy detal badiiy asarning ajralmas qismi bo'lib, unga hayot, ifoda va teranlik baxsh etadi. Badiiy detal yordamida yozuvchilar o'zlari yashagan ijtimoiy hayot tasvirini badiiy aks ettirib, olam va odam haqidagi mulohazalarini ifodalaydi. Badiiy detal orqali satirik adiblar hikoyalarida jamiyatdagi norasoliklar va insonlarda uchraydigan nuqsonlarni ashaddiy qoralashgan va ularga mantiqiy yechim izlashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. — Т.: Akademnashr, 2013. — 411 б.
2. Андреев А.Н. Целостный анализ литературного произведения: Учеб. пособие для студентов вузов. — Мн.: НМЦентр, 1995. — 146 с.
3. Waugh E. The Complete stories of Evelyn Waugh. Little, Brown and Company. Boston New York London, 1999. — 611 p.
4. Qahhor A. Adabiyot muallimi. Hikoyalar. — Т.: Yangi asr avlodi, 2019. — 159 b.
5. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. — Т.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — 264 b.

References

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lugati* (Dictionary of Literary Studies), Toshkent: Akademnashr, 2013, 411 p.
2. Andreev A.N. *Selostniy analiz literaturnogo proizvedeniya* (Holistic Analysis of a Literary Work), Mins: NMTsentr, 1995, 146 p.

3. Waugh E. *The Complete stories of Evelyn Waugh*. Little, Brown and Company. Boston, New York, London, 1999, 611 p.
4. Qahhor A. *Adabiyot muallimi. Hikoyalar* (Literature teacher. Stories), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2019, 159 p.
5. Umurov H. *Adabiyot nazariyasi* (Literary Theory), Tashkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004, 264 p.